

OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI OFITSERLARNING RAQAMLI MEDIA KOMPETENTLIGIN RIVOJLANTRISH TEXNOLOGIYASI

Metinov Dilshodjon Muxamadjonovich

Chirchiq Oliy Tank Qumondonlik Muxandislik

Bilim Yurti Taktika kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi vaqtida media-ta'lism sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari allaqachon aniqlangan. Oliy Harbiy Ta'lism muassasalarida bu jarayonni tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Ofitserlarning media hamda raqamli kompetentsiyasini shakllantirish individual va jamoaviy tarzda pedagoglar zimmasiga yuklandi. Ushbu maqolada ofitserlarning raqamli va media kompetentsiyasini shakllantirish tamoyillari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mediata'lism, media kompetentsiya, shakllantirish, o'qituvchi, media resurs, media ta'lism vositasi raqamli texnologiya.

Абстрактный. В настоящее время уже определены основные направления исследований в области медиа образования. Технология организации этого процесса разработана в высших военных учебных заведениях. Формирование медиа - и цифровой компетентности офицеров было поручено педагогам индивидуально и коллективно. В данной статье освещены принципы формирования цифровой и медиа компетентности офицеров.

Ключевые слова: медиаобразование, медиакомпетентность, образование, педагог, медиа ресурс, инструмент медиа образования, цифровые технологии.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha vazifalar aniq belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda davlatimiz jahonga yuz tutib o'zini iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatorida ko'rishni istar ekan, bu yo'lida biz yoshlardan talab qilinadigan dunyoning ilm-fan, iqtisodiy, siyosiy, san`at va madaniyat hamda texnikaviy jihatdan yuksak rivojlangan mamlakatlarida to'plangan bilimlarni chuqur o'rganish, mavjud tajribalarni amaliyotga tatbiq etish yo'lidan hech og'ishmasdan ildam qadam tashlashdir.

Biz o'z oldimizga O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz [1].

Hammamizga ma'lumki, uchinchi ming yillikning ijtimoiymadaniy mohiyati jahon iqtisodiyatining globallashuvi, jamiyatni axborotlashtirish, ilmu-fan, texnika, turli xil ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi hamda ma`naviy qadriyatlarning o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining hayotimizga beqiyos ta'sirini har jabhada kuzatish mumkin, bejizga XXI asr global axborot asri deb atalmagan.

Jahonda jamiyatni axborot o'qituvchilarining raqamli media bilimlarining rivojlantirish hamda bu jarayonda tanqidiy fikr yurita olish, axborotni tahlil qila bilish va undan oqilona foydalanish, mustaqil ta'lim olish indikatorlarini takomillashtirish orqali sifatli ma'lumot olish muhitini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini jamyat hayotiga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish, uquvchi yoshlarda media hamda raqamli savodxonligini rivojlantirish, raqamli ta'lim jarayonlarini tashkil etish, media kompetentlik modellarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga e'tibor qaratilmoqda.

Har qanday turdagi ma'lumotlar bilan ishlash, birinchi navbatda, "axloqiy yoki axloqsiz", "menga va boshqalarga foydali yoki zararli", "shaxsiy rivojlanishga olib keladi yoki shaxsiy tanazzulga olib keladi" pozitsiyasidan aniq shaxsiy yondashuv asosida amalga oshirilishi kerak. Ushbu yondashuv o'z-o'zidan - professional o'qitish, ammo bu, bizning fikrimizcha, har bir inson uchun uning xavfsizligi va shaxsiy rivojlanishining kafolati sifatida zarurdir [2].

Aynan mana shu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim beruvchi tashkilotlar hamda pedagoglardan, zamонавиу та'лим texnologiyalari, ayniqsa mediata'lim asosida vujudga kelgan mediaxavfsizlik tushunchasiga e'tibor qaratilishlariga ehtiyoj zarurligi oydinlashib bormoqda.

Axborotlashgan jamiyatda media va xavfsizlik atamalarini qo'llash natijasida «mediaxavfsizlik» tushunchasi paydo bo'ldi. Mediaxavfsizlik – bu bolalar va yoshlarning sog'lig'iga, jismoniy, ma`naviy va axloqiy rivojlanishiga zarar Yetkazadigan, shu jumladan Davlatning fuqarolar uchun axborot xavfsizligini ta'minlashi, jismoniy, aqliy va ma`naviy rivojlanishi, shuningdek, barcha audiovizual va elektron ommaviy axborot vositalarida inson qadr-qimmatining himoya qilinishi [3]. Bugungi kunda yangi strategiya va texnologiyalar faol ishlab chiqilmoqda, o'ziga xos tushuncha va atamalar paydo bo'lmoqda. (masalan, "kiberxavfsizlik", "raqamli avlod", "raqamli jamiyat", "axborot savodxonligi", "ekologiya" "media makon", "media faoliyati", "kiber makon", "media auditoriyasi" h.k.):

Ko'plab axborot tahlidlar insonlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishga urinayotgan bir davrda ana shu jarayonlarni psixologik tahlil qilish va jamiyatning bunday mediatahdillardan muhofaza etishning yo'llarini izlab topib, hayotga joriy etish juda muhim vazifa hisoblanadi. Bunday sharoitda mediakompetentlikni zamonaviy talablarini hisobga olgan holda rivojlantirish, bu jarayonning pedagogik sharoitlarini aniqlash talab etiladi. Hozirda ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda oliy harbiy ta'lim muassasalari ofitserlarning raqamli media kompetentligin rivojlantrish yo'naliшlarini belgilash lozim.

Shu sababdan ham biz oliy harbiy ta'lim muassasalari ofitserlarning raqamli media kompetentligin rivojlantrishga ijtimoiy va informatsion omillar o'z ta'sirini o'tkazadi dep hulosa qildik (1-rasm).

Ofitserlarning raqamli media kompetentligin rivojlantrishga ta'sir etuvchi omillar



IJTIMOIY OMILLAR

1. O'z xatti-harakatlarini tahlil qila olishi;
2. Muloqot madaniyatining darajasi;
3. Faoliyat motivatsiyasi;
4. Mamlakat taqdiri, uning rivojlanishi uchun javobgarlikni his qila olishi, huquqiy madaniyatga ega bo'lish;
5. Kasbiy mavqeining o'sishiga intilish.

INFORMATSI ONOMILLAR


1. Jurnal, ilmiy-ommabop manbalar;
2. Internet resurslari;
3. Ommaviy axborot vositalari;
4. Elektron darslik va ko'rgazma materiallari;
5. Axborot xavfsizligini ta'minlovchi barcha media-xizmatlar.

1-rasm. Ofitserlarning raqamli media kompetentligin rivojlantrishga ta'sir etuvchi omillar.

Mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, intellektual jihatdan rivojlangan, o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyo taraqqiyoti shiddati, unda kechayotgan voqealar rivoji barcha sohalar kabi ta'lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Avvalo, bu o'quv dastur va darsliklarni yanada takomillashtirish, o'qituvchi-pedagoglar saviyasini muntazam oshirib borish,

jarayonga eng zamonaviy va ilg‘or axborot hamda ta’lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolarda ko‘rimmoqda.

Shulardan kelib chiqib, biz OHTM - ofitserlarning mediamavfsizlikning klaster xususiyatlarini keltiramiz 2 - rasmga qaren:



2- Rasm mediamavfsizlik tushunchalar bo'yicha klaster

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T. “O’zbekiston”, 2021, 23-b.
2. Dr. Ilya Hazanov, Kurgan State University, Sovetskaya, 63, page 4, Kurgan, 640020, Russia, Formation of media competence of future teachers in the process of studying
3. Babadjonov S.S. Axborot va multimedia texnologiyalari atamalarining izohli lug’ati. Metodik qo’llanma.:T-2019y.
4. Babadjonov S. S. (2023). Oliy Harbiy Talim Muassasalari bo’lajak ofitserlarning raqamli media kompetentligin rivojlanganlik darajalari xarakteristikasi. Zamonaviy fan va ta’lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, 1 (1), 72-80.